



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 418 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdullaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Guldon Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmonov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'l boshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аюезова	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	



SENSOR INTEGRATSIYA BUZILISHLARI BOLANING NUTQ, HARAKAT VA HISSIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti,
Defektologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolaning nutq, harakat, hissiy va ijtimoiy sohalarda to'laonli rivojlanishi uchun sensor tizimlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati zarurligi yoritilgan. Sensor stimulyatsiya miya faoliyatini rag'batlantirib, yangi neyron aloqalarning yuzaga kelishiga olib keladi. Interoseptiv, taktil, propriozeptiv va vestibulyar tizimlarning har biri bolaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada miya qanday qilib hissiy ma'lumotlarni qayta ishlashi, ortiqcha stimularga qanday javob berishi va axborotni qanday tartibga solishi ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sensor integratsiya, nutq rivojlanishi, proprioepsiya, vestibulyar tizim, Pjaje nazariyasi, Glen Doman metodikasi, sensor stimulyatsiya, asab tizimi, interosepsiya, hissiy rivojlanish, motorika, bolalar nevrologiyasi, neyronlar o'sishi, taktil sezgi.

Abstract: This article highlights the importance of coordinated functioning of sensory systems for the full development of a child in speech, motor, emotional, and social domains. Sensory stimulation activates brain activity and promotes the formation of new neural connections. Each sensory system – interoceptive, tactile, proprioceptive, and vestibular – plays a vital role in child development. The article provides a scientific explanation of how the brain processes sensory input, responds to overstimulation, and filters incoming information.

Key words: Sensory integration, speech development, proprioception, vestibular system, Piaget's theory, Glenn Doman's method, sensory stimulation, nervous system, interoception, emotional development, motor skills, child neurology, neuron growth, tactile perception.

Аннотация: В данной статье освещается необходимость согласованного функционирования сенсорных систем для полноценного развития ребёнка в речевой, двигательной, эмоциональной и социальной сферах. Сенсорная стимуляция активизирует деятельность мозга и способствует формированию новых нейронных связей. Каждая из сенсорных систем – интероцептивная, тактильная, проприоцептивная и вестибулярная – играет важную роль в развитии ребёнка. В статье научно обосновано, как мозг обрабатывает сенсорную информацию, реагирует на избыток стимулов и фильтрует поступающие сигналы.

Ключевые слова: Сенсорная интеграция, речевое развитие, проприоцепция, вестибулярная система, теория Пиаже, методика Глена Домана, сенсорная стимуляция, нервная система, интероцепция, эмоциональное развитие, моторика, детская неврология, рост нейронов, тактильное восприятие.

KIRISH

Nutq, harakat va hissiy sohalarda rivojlanishida nuqson kuzatilgan, o'qish, xulq va muloqotda muammolarga ega bo'lgan bolalarning 70 % dan ortig'ida sensor tizimlar faoliyatida buzilish mavjud bo'ladi. Markaziy asab tizimining hech bir qismi mustaqil ishlamaydi – axborot uning bir qismidan boshqasiga uzatiladi. Teginish sezgisi ko'rish funksiyasiga yordam beradi, ko'rish esa muvozanatni saqlashga, muvozanat esa tananing fazodagi holatini sezish va harakatlanishga xizmat qiladi. Harakat esa, o'z navbatida, o'rganish jarayonining asosiy omillaridan biridir.

Miyaga stimulyatsiya zarur – u miya faoliyatini faollashtirib, funksional jarayonlarni ishga soladi. Shu tariqa, nafas olish, ovqat hazm qilish, yurish, nutq, o'qish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi. Yetarli darajadagi stimulyatsiya miya hujayralari o'rtasidagi neyron bog'lanishlar sonining ortishiga olib keladi. Bola tug'ilgan zahotiyoyq faqat tana va atrof-muhitdan kelayotgan hissiy stimulyatsiya ta'sirida rivojlanadi.

Miya har sekundda hissiy a'zoldan katta hajmdagi axborotni qabul qiladi. Bu axborotni tartibga solish, eng zarur qismlarini ajratib olish va ortiqcha sensor signallarni filtrlash – miya faoliyatining muhim vazifalari-dandir. Hissiy va ichki organlardan keladigan nerv impuls-lari oqimi bolaning asab tizimi rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Agar bola sog'lom tug'ilgan bo'lsa va uning sensor stimulyatsiyasi tabiiy holatda kechsa, harakat ko'nikmalari, nutq va xulq rivojlanishida sezilarli muammolar kuzatilmaydi.

Biroq hayotining ilk bosqichlarida sensor stimulyatsiyada buzilish mavjud bo'lsa (masalan, tug'ruq jarayonida sezuvchi a'zolar, miya ustuni, kichik miya yarim sharlari, asab yo'llari va boshqa strukturalar shikastlangan holatlarda), stimulyatsiya jarayoni yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Natijada bolada turli buzilishlar shakllanadi va bu holat sensor integratsiya disfunktsiyasiga olib keladi. Bola tashqi va ichki axborotni qanday qayta ishlashi uning hissiyotlari, fikrlari va harakatlari rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Miya faoliyati jarayonlaridagi eng yengil buzilishlar ham bolaning kundalik ko'nikmalarni egallash, o'qish va muloqot qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sensor integratsiya nazariyasi ilk bor Ayres (1979) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bolalardagi nutq, harakat va hissiy rivojlanishdagi buzilishlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Uning izlanishlari asosida sensor stimulyatsiyaning miya faoliyatiga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan.

Bundy, Lane va Murray (2002) sensor integratsiyaning amaliyotga tatbiqini keng yoritgan bo'lsa, Kranowitz (2005) ushbu buzilishlarning kundalik hayotdagi ifodalanishini tasvirlaydi. Schaaf va Mailloux (2015) esa Ayres nazariyasiga asoslangan terapevtik usullarni ishlab chiqqan.

Dunn (2001) va Tomchek bilan birgalikdagi tadqiqotlar (2007) sensor axborotni qayta ishlashdagi farqlarni baholash va autizmlil bolalar uchun amaliy yo'nalishlarni taklif etadi. Parham va Mailloux (2010) sensor asosdagi muolajalar samaradorligini klinik misollar orqali ko'rsatgan.

Mahalliy adabiyotlardan Shamsiev (2016) bolalar psixonevrologiyasi asoslarini yoritib, sensor rivojlanishning nevrologik jihatlarini tushuntiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola uchun ma'lumotlar asosan tahliliy va nazariy manbalar asosida to'plandi. Sensor integratsiya, nutq, harakat va hissiy rivojlanish bilan bog'liq muammolar bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy adabiyotlar o'rganildi. Ma'lumotlar tanlab olish usuli orqali saralandi, ya'ni faqat ilmiy ishonchiligi yuqori bo'lgan, so'nggi yillardagi tadqiqotlar asos qilib olindi. Tahlil jarayonida taqqoslovchi usuldan foydalanilib, turli manbalarda keltirilgan yondashuvlar o'zaro qiyoslandi. Shuningdek, deductive yondashuv asosida umumiy nazariy qarashlardan aniq xulosalarga erishildi. Tanlangan ma'lumotlar asosida sensor tizimlarning bola rivojlanishiga ta'siri tizimli tarzda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yosh o'tishi bilan mavjud muammolar kuchayadi hamda bola rivojlanishida, maktabda o'qish va xulq-atvorda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Barchamizga tanish bo'lgan asosiy hissiy tizimlar mavjud: ko'rish, eshitish, ta'm bilish va hid bilish. Bu "tashqi" hissiyotlar atrof-muhitdagi stimullarga javob beradi. Shu bilan birga, inson organizmida "ichki" hissiyotlar ham mavjud: interoseptiv, taktil, propioseptiv va vestibulyar tizimlar. Ular tanaga bog'liq bo'lib, ongli fikrlardan mustaqil faoliyat yuritadi va inson ularni bevosita boshqara olmaydi. Quyida ushbu tizimlarning har biri qisqacha tahlil qilinadi.

Interoseptiv tizim – bu ichki a'zolardan keladigan sezgilar (masalan, yurak urish tezligi, nafas olish ritmi, ochlik, hayajon, kayfiyat o'zgarishlari va boshqalar).

Taktil tizim – tegish, bosim va boshqa tashqi omillardan keladigan sezgilarni o'z ichiga oladi. Taktil disfunktsiyasi bo'lgan bolalar ko'pincha ovqatlanish, mimika va artikulyatsiya jarayonlarida qiyinchiliklarga duch keladi. Buning sababi – yuz va og'iz sohasidagi retseptorlardan yetarli darajada ma'lumot ololmasligidir.

Proprioseptiv tizim – tananing fazodagi holatini mushaklar, paylar va bo'g'imlardan keladigan axborot asosida aniqlashga xizmat qiladi. Proprioseptiv disfunktsiyaning keng tarqalgan belgilaridan biri – no'noqlik, tananing fazodagi holatini to'g'ri baholay olmaslik, yangi harakat ko'nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklardir. Harakat ko'nikmalari esa nutq faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Vestibulyar tizim – harakat, og'irlik kuchi va muvozanat sezgilari bilan bog'liq. Ushbu muhim tizim haqida keyingi bo'limlarda batafsil ma'lumot beriladi.

Miya hissiy axborotni tartibga soladi, ajratadi va filtrlash orqali muvozanatni ta'minlaydi – bu jarayon yo'l harakati boshqaruvchisining vazifasiga o'xshaydi. Asab tizimining asosiy elementi bu – asab hujayrasi, ya'ni neyron. Neyron tanasi, dendritlar, akson va terminal qismlardan iborat. Inson tanasida millionlab neyronlar mavjud bo'lib, ular umumiy asab tizimini tashkil etadi. Dendritlar boshqa hujayralar yoki retseptorlardan (ko'z, quloq, til va boshqalar) keluvchi impulslarni qabul qiladi. Bu impulslar neyron yadrosi orqali aksonga, u yerdan esa terminal orqali boshqa neyronlarga yoki bajaruvchi organlarga (masalan, mushaklarga) uzatiladi.

Bolaning rivojlanish jarayoni dendritlar, aksonlar va terminal qismlarning o'sishi bilan chambarchas bog'liq. Bu o'sish miya ustunidan boshlanadi va asab tizimining yuqori qavatlariga tarqaladi. Sensor stimulyatsiya va to'plangan hayotiy tajriba ushbu o'sishni jadallashtiradi.



Shveysariyalik mashhur bolalar psixologi Jan Piaje bolaning aqliy rivojlanishi asosida sensor-motor faoliyat yotishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bir yoshli bola atrofdagi har bir narsani ushlashga harakat qiladi, uni his qilish va o'zlashtirish istagida bo'ladi. Hatto, ko'rgan narsalarini og'ziga solishga urinish orqali u atrof-muhitni faol o'rganadi. Piaje bolaning intellektual rivojida aynan qo'l harakatlariga, xususan ushlash jarayoniga alohida e'tibor bergan.

Bola faqat narsalarni ushlaymaydi – balki qo'l va barmoq harakatlarining aniqligini mukammallashtiradi, ularni ko'rish bilan muvofiqlashtirishni o'rganadi va fazoviy tasavvurlarni nazariy emas, balki amaliy asosda shakllantiradi. Masalan, qoshiq yoki stakanni olish, sharbat ichish yoki olma yeyish harakatlari orqali. Bu harakatlar minglab, hatto yuz minglab marotaba takrorlanadi va avtomatlashgan reflekslarga aylanadi. Bu jarayonda miyada harakatlar, sezgilar va hissiyotlarni soddalashtiruvchi va avtomatlashtiruvchi mexanizmlar shakllanadi. Sensor-motor aql g'ishtday yig'ilib, chuqur ong osti faoliyatiga asos bo'ladi.

Amerikalik olim Glen Doman tomonidan chaqaloqlar uchun mo'ljallangan maxsus jismoniy mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, bolalar uchun ushlab ko'rishga mo'ljallangan moslamalar, harakatlanishni yengillashtiruvchi 36,5 sm kenglikdagi trubkalar ham yaratilgan. Doman o'z tizimini Piaje nazariyasi hamda o'tgan asrdagi mashhur rus fiziologi Boris Klosovskiy tadqiqotlariga asoslagan. Klosovskiy o'z izlanishlarida miya tuzilmalari faqat sensor stimulyatsiya sharoitida normal rivojlanishini ilmiy isbotlagan.

Glen Doman ota-onalarga bolalarning yirik motorikasini (emaklash, yurish, yugurish va h.k.), nozik motorikasini (barmoqlar harakati), vestibulyar apparatini (bola bilan aylantirish, tebratish, osmonga otish) muntazam mashq qildirishni tavsiya qiladi. Mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi, kuniga bir necha marta, kamida 5–10 daqiqa davomida bajarilishi lozim.

Miya hissiy axborotni atrof-muhit talablari va organizm ehtiyojlariga moslashtira oladi. Zaruratga qarab u muayyan nerv zanjirlarini faollashtiradi yoki bloklaydi. Masalan, bola to'p o'ynayotganida bir zanjir faol bo'ladi, o'qishni boshlaganda esa boshqa zanjir ishga tushadi. Miya ortiqcha ma'lumotni to'sadi. Masalan, sinfda o'tirgan bola ventilyatorning shovqinini sezmaydi, chunki miya uni rad etadi va diqqatni o'qituvchining ovozigga qaratadi. Aks holda, ortiqcha stimulyatsiya yuzaga keladi va bu miya faoliyatini izdan chiqaradi.

Ma'lum hissiyotlarga miya vaqt o'tishi bilan e'tibor bermay qo'yadi. Masalan, yelka halta kamarining bosimi dastlab noqulay tuyuladi, keyin esa sezilmay qoladi. Miya, shuningdek, yoqimli sezgilarni kuchaytiradi, masalan, tebratuvchi stuldagi xotirjamlik hissi.

Afsuski, ko'plab bolalarda sensor axborotni qabul qilish tizimi to'laqonli ishlamaydi. Natijada ular ma'lum hissiy ma'lumotlarga mos javob qaytara olmaydi. Axborot haddan ortiq bo'lsa – miya haddan tashqari yuklanadi va bola yangi taassurotlardan qochadi. Aksincha, axborot yetishmasa – miya qo'shimcha stimullarni izlashga kirishadi. Har bir inson ba'zida sensor axborotni qabul qilishda muammoga duch keladi. Masalan, uzoq vaqt uxlamagan holatingizda qanday his qilasisiz? Uyqusizlik diqqatni jamlash va harakatlarni muvofiqlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun tashqi va ichki hissiy stimullar orqali markaziy asab tizimining barqaror faoliyati ta'minlanishi lozim. Sensor tizimlar faoliyatidagi buzilishlar bolaning nutqiy, motorik va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Erta yoshdan boshlab amalga oshiriladigan muvofiqlashtirilgan sensor stimulyatsiya har qanday rivojlanish nuqsonining oldini olishda muhim profilaktik omil bo'lib xizmat qiladi.

Jan Piaje va Glen Doman tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvlarga ko'ra, bolaning aqliy va jismoniy salohiyatini shakllantirishda harakat, amaliy tajriba va taktil aloqalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning ilmiy qarashlari sensor-motor asoslar orqali intellektual rivojlanishning muhim komponentlarini ochib beradi.

Shu bois, defektologik va logopedik amaliyotda sensor integratsiya konsepsiyasini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish lozim. Erta aralashuv, funksional mashg'ulotlar va harakatga asoslangan terapiya usullaridan foydalanish bolaning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayres J. A. (1979). Sensory Integration and the Child.
2. Bundy A. C., Lane S. J., Murray E. A. (2002). Sensory Integration: Theory and Practice.
3. Kranowitz C. S. (2005). The Out-of-Sync Child.
4. Schaaf R. C., Mailloux Z. (2015). Clinician's Guide for Implementing Ayres Sensory Integration.
5. Miller L. J. (2006). Sensational Kids.
6. Dunn W. (2001). The Sensory Profile: User's Manual.
7. Tomchek S. D., Dunn W. (2007). Sensory Processing in Children with and without Autism.
8. Parham D. L., Mailloux Z. (2010). Sensory Integration Interventions for Children.
9. Schaaf R. C., et al. (2014). An Intervention for Sensory Difficulties in Children with Autism.
10. Shamsiev A. Sh. (2016). Bolalar psixonevrologiyasi asoslari. Toshkent: TMA nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.